

## A PRAGMATIC APPROACH TO THE SYSTEM OF SPEECH

### NUTQIY MULOQOT TIZIMIGA PRAGMATIK YONDASHUV

Nuritdinova Ra'no Sevdievna  
filologiya fanlari nomzodi

Jumayeva Samara Erkin qizi

NDPI Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi magistranti.

#### ANNOTATION

The article examines the use of linguistic units in conjunction with other non-linguistic means in the speech process, pragmatics as a field of study of the effectiveness of speech communication. Verbal communication is thought to be the interaction of communicators and the effective product of language and the object of study of pragmatics.

**Keywords:** pragmatics, communication etiquette, speech communication system, pragmalinguistics, pragmatic analysis, discourse - the process of speech communication, communicant.

#### ANNOTATSIYA

Maqolada lisoniy birliklarning nutq jarayonida boshqa nolisoniy vositalar bilan birgalikda qo'llanilishi, pragmatikaning nutqiy muloqot samaradorligini o'rganuvchi yo'nalish ekanligi tadqiq qilingan. Nutqiy muloqot – kommunikantlarning bir-biriga ta'siri va tilning samarali mahsuli hamda pragmatikaning tadqiqot ob'yekti ekanligi xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** pragmatika, muloqot odobi, nutqiy muloqot tizimi, pragmalingvistika, pragmatik tahlil, diskurs – nutqiy muloqot jarayoni, kommunikant.

Muloqotning samarali kechishi ma'lum qoidalar, muomala tamoyillariga amal qilish bilan bog'liq. Dunyo xalqlari muloqot odobi, muomala mas'uliyatiga oid minglab maqol-matallar yaratganlar, bu borada behisob nodir asarlar bitilgan. Jumladan, sharq milliy madaniyati durdonalari bo'lmish «Qutadg'u bilig», «Qobusnoma», «Hibbatul haqoyiq» kabi madaniy yodgorliklar, buyuk mutafakkirlar Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor kabilarning asarlari bunga misoldir. Kaykovusning «Qobusnoma»da keltirgan quyidagi pandlarini eslaylik: «Gar so'zni va hunarni yaxshi bilsang ham hech bir so'zni sindirmag'il, to'g'ri ta'rif qilg'il va uni bir rangda aytg'il: xosga xos so'z, omiyga omiy so'z deg'il, toki u hikmatga muvofiq bo'lsun va eshitg'on kishiga og'ir kelmasin, yo'qsa so'zingni dalil va hujjat bila ham eshitmag'aylar. Undin so'ng ularning rizosiga qarab so'zlag'il, to salomat bo'lg'aysan». Eng asosiysi, bu an'analar hozirgacha davom etmoqda va nutq mas'uliyati, muloqot odobi, so'zlashish madaniyati kabi masalalar doimiy ravishda o'zbek olimlarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda Jumladan, Begmatov, O'rinboyev, Soliyev, Mo'minov, Iskandarovalarning tadqiqotlarida nutq madaniyati, muloqot odobi masalalari yoritilgan. Biroq har qanday nazariya, u qanchalik ilmiy-g'oyaviy asoslangan bo'lmasin,

amaliyotdagi isbotga muhtoj, tahlil ob'ektining mohiyatini to'liq tavsiflash uchun nazariya faktlarga, voqelikdagi hodisalarga murojaat qiladi. «Faust»dagi misralarni eslaylik:

*Grau, teurer Feund, ist alle Theorie,  
Doch grun des Lebens goldner Baum.*

Mazmuni: «Nazariya, do'stim, quruqdir (yalong'ochdir), hayot daraxti esa – yam-yashil».

Har qanday faoliyat o'zining amaliy qimmatini bilan ahamiyatlidir. Nutq jarayoni faoliyat bo'lganligi uchun muloqot nutqi samarasi ham nutqning ta'sirchanligi, ma'lum bir maqsadga erishganligi bilan belgilanadi. So'zlovchi va tinglovchining (kommunikantlarning) bir-biriga ta'siri, maqsadlarining yuzaga chiqish darajasi muloqot jarayonining amaliy samarasi bo'lib, pragmatik qiymatga egadir.

Nutqiy birliklarni muloqot birliklaridan (nutqiy birlik va uning voqelanish sharoiti qurshovidan) farqlash zarurati strukturalizmدا nutqiy birliklarni lisoniy birliklarni yashash sharoitidan ajratib tadqiq etish natijasida yuzaga keldi. Pragmatikada nutqiy birlikning voqelanishi diskurs – nutqiy muloqot jarayoni, kommunikantlarning o'zaro fikr almashinish va bir-biriga ta'sir o'tkazish faoliyati doirasida o'rganiladi. Nutqni jarayon sifatida o'rganish esa faqat muloqot – so'zlovchi va tinglovchi orasida o'zaro diskurs (fikr almashish), savolga yarasha javob berish - holatidagina amalga oshirilishi mumkin.

Pragmatika – tilshunoslikning bir tarmog'i, aniqroq qilib aytganda, lisoniy birliklarning nutq jarayonida boshqa nolisoniy vositalar bilan birgalikda qo'llanishini, nutqiy muloqot samaradorligini o'rganuvchi yo'nalishi. Nutqiy muloqot – kommunikantlarning bir-biriga ta'siri va uning samarasi – pragmatikaning tadqiq manbai, bu jarayonga tizim sifatida yondashish esa bu yo'nalishning asosiy tadqiq usulidir. Shuning uchun pragmatika tilshunoslik bilan bevosita aloqadordir – u nutqiy birliklarning o'zinigina emas, balki ularni qo'llanish qurshovida, aloqadorlikda o'rganadi.

XX asrning boshlarida aniq va tabiiy fanlar, asrimizning ikkinchi yarmidan boshlab esa ijtimoiy fanlar ham muayyan jabhada o'zaro yaqinlasha bordi. Natijada, sotsiologiya, etnopsixologiya, sotsiopsixologiya kabi yangi soha va yo'nalishlar yuzaga keldi. Serqirra tadqiq manbaiga turli fanlarning kesishish nuqtasi sifatida qarash inson nutqini fanlarning tutash nuqtasida tadqiq etishga, o'ta murakkab jarayon bo'lgan muloqotning asl mohiyatini, o'ziga xos qonuniyatlarini ochishga imkon berdi. Jamiyatda o'ziga xos takrorlanmas olam bo'lgan nutqiy muloqot jarayonining ruhiy, milliy, ijtimoiy, hududiy xususiyatlariga e'tibor qaratsak, unda turli tarkibiy qismlar o'zaro ma'lum munosabatlar bilan bog'langanligini ko'ramiz va ularni butunlik sifatida yaxlit holda o'rganish, tadqiq etish kerakligiga ishonch hosil qilamiz.

So'zsiz, muloqot jarayonining asosiy maqsadi axborot uzatish va qabul qilishdir. Shu sababli bo'lsa kerakki, kommunikatsiya hodisasiga turli mualliflar tomonidan berilayotgan barcha ta'riflar asosida ijtimoiy kommunikatsiyani insonlarning belgilar vositasida bajaradigan o'zaro «axborot – ma'no hamkorligi» sifatidagi talqini yotadi. Lekin muloqot maqsadi oddiygina axborot almashish bilan chegaralanib qolmaydi, axborot uzatishdan «hamkor»ga ta'sir o'tkazish, uni biror narsaga ishontirish, bo'sundirish, harakatga undash maqsadi kutiladi. Bundan tashqari, semiotiklarning o'zlari e'tirof etganlaridek, aloqa vositasi bo'lmish belgilar so'zlovchi tomonidan o'z maylini, birovni yoki biror narsani yoqtirishini, noroziligini, hayratini va boshqa ruhiy tuyg'ularini izhor etish uchun ham qo'llanishini bilamiz. Lisoniy muloqotning

xuddi shu jihatlari e'tiborga olingandagina semiotik tizimning qismlari o'zaro dinamik, harakatchan munosabatda bo'lishini tasavvur qilish mumkin bo'ladi.

Tilning mavjudligi insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liqdir. Bu harakatlarning bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi o'rinda - gap) asl ma'nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladilar. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. Demak, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir.

Muloqot jarayonida hosil bo'ladigan nutqiy harakatlarni alohida lisoniy birlik sifatida talqin qilish va ularni mazmunan tasniflash g'oyasini ilk bor targ'ibot qilganlardan biri Oksford universiteti professori Jon Ostin edi. U 1955-yilda Garvard universitetida tashkil qilinadigan an'anaviy «Uilyam Jeyms o'qishlari» dagi ma'ruzalarida ushbu muammoni o'rtaga tashladi. J.Ostin falsafiy mantiq va an'anaviy grammatikada qo'llanib kelinayotgan «gap» va «hukm (tasdiq)» tushunchalarining talqinidagi chalkashliklar qanday noqulayliklarga va noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkinligiga e'tiborni qaratadi. Grammatik an'anada har qanday gap ham hukm yoki tasdiq bo'lavermasligi va savol, undov, istak-xohish yoki boshqa turdagi mazmunlarni ifodalovchi gaplar ham mavjudligi e'tirof etilgan.

Nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma'nosining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan «boyitilishi», idrok etilishi natijasidir.

Har qanday muloqot harakati natijaviy (oxirgi) maqsadni ko'zlab bajarilishi haqida yuqorida gapirildi. Bu maqsadga erishish uchun so'zlovchining nutqi tinglovchiga ta'sir o'tkazmog'i darkor. Nutqiy faoliyatning ta'sir o'tkazish bosqichi *perlokutiv akt* nomini olgan. Biz «*Issiq choy damladim*» gapi talaffuzining natijasini tinglovchi ushbu nutqiy harakatni biz istagan maqsadda (masalan, tinglovchi choyni issiqligini eshitib, uni ichishga rozi bo'lishida) qabul qilishda ko'ramiz. Demak, perlokutsiya tinglovchi ongiga, his-tuyg'ulariga va xatti-harakatiga ta'sir o'tkazish harakatidir.

«Illokutsiya» tushunchasi nutqiy akt nazariyasida eng keng tarqalgan tushunchadir. Nutqiy akt strukturasi markazida ham illokutiv harakat turadi. Hatto illokutiv akt to'lig'icha nutqiy harakatning muqobili sifatida qaralish hollari ham uchraydi va nutqiy aktlar tasnifi illokutiv maqsad ko'rsatkichlariga asoslanadi.

«Illokutiv akt» tushunchasi pragmalingsvistikada inson tomonidan nutqiy jarayonda va nutqiy faoliyat vositasida bajariladigan harakat sifatida ta'riflanadi. O.G.Pochepsovning ta'rificha, 1) illokutiv harakatning ijrochisi (agenti) so'zlovchi yoki yozuvchidir; 2) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyatidan farq qiladi; 3) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyati jarayonida yuzaga keladi; 4) illokutiv akt nutqiy faoliyat vositasida bajariladi.

Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, O.G.Pochepsov illokutsiyaning nutqiy faoliyatdan farqini ko'rsatishga qanchalik harakat qilmasin, u hech qachon kommunikativ faoliyatsiz, insonlararo munosabatni yaratish muhitisiz yuzaga kelmaydi. Illokutiv akt bevosita muloqot strukturasi ishtirokchisi, kommunikatsiyani maqsadli va mazmunli ko'chishini ta'minlovchi nutqiy faoliyat bo'lagidir.

Illokutiv akt hosil bo'lishi uchun ma'lum bir nutqiy tuzilmaning aniq ko'rinishdagi «illokutiv kuchi» (illocutinary force) namoyon bo'lmog'i darkor. Masalan, «*Issiq choy damladim*» kalimasi

vositasida choyga taklifni izhor qilish maqsadini ifodalanayotganda, gap tuzilmasining ushbu mazmun ifoda vositasi bo'la olish imkoniyati, ya'ni «kuchi» voqelanadi. Illokutiv maqsad esa fikriy hodisa bo'lib, nutqiy harakatning mazmuni, mundarijasini belgilaydi. Z.Vendler talqinicha, illokutiv maqsad aslida, «mental harakat bo'lib, so'zlovchi tinglovchini ushbu harakatni bajarishga undaydi». Illokutiv maqsad nutqiy harakat kuchini namoyon qilish qanchalik muhim bo'lmasin, lekin bu maqsad ushbu kuchning faqatgina bir qismi, bo'lagidir. Zero, nutqiy harakat kommunikativ mazmunining to'liq hosil bo'lishi uchun maqsaddan tashqari, unga erishishni ta'minlovchi vosita va shart-sharoit ham mavjud bo'lishi talab qilinadi. Shuning uchun ham J.Syorl, D.Vanderveken va boshqalar nutqiy harakat illokutiv kuchini yetti qismdan tarkib topuvchi hodisa sifatida qaraydilar. Bulardan birinchisi, albatta, kommunikativ maqsaddir, chunki busiz nutqiy harakatning o'zi ham bajarilmaydi. Keyingilari esa qandaydir darajada ushbu qismni to'ldiradilar, ular – illokutiv maqsadga erishish usuli (vositasi), illokutiv kuch voqelanishi jadalligi, voqelanishni ta'minlovchi propozitsion, haqqoniylik kabi mental sharoitlardir.

Illokutiv kuch qismlarining tuzilishi mantiqiy tartibga ega. Aynan shu tartib illokutiv harakatning mustaqilligini ta'minlaydi va uning propozitsiya aktisiz bajarilishiga imkon beradi. Binobarin, «*Afsuski!*», «*Voy, xudo!*», «*Tavba qildim!*» kabi nutqiy birliklar propozitsiya mazmuniga ega emaslar, lekin ular illokutiv jihatdan to'liq shaklga egadirlar, ya'ni ular ma'lum kontekstda kommunikativ maqsad va mazmunni ifodalaydilar.

Pragmatika nutqiy ta'sir natijasining hosil bo'lishi ehtimolini belgilovchi vositalarni aniqlash imkonini beradi. Bunday vositalar qatoriga masalan, pragmatik mazmunni aniqlashtiruvchi illokutiv fe'llar kiradilar. Ushbu fe'llar nutqiy harakat tarkibida muhim rol o'ynaydilar, ular muloqot maqsadi mazmuni va bajaralayotgan nutqiy harakatning illokutiv kuchini aniq va ochiq ko'rsatish xizmatini o'taydilar. Masalan, «*Kumushni ertaga kinoga olib boraman*» gapining talaffuzi vositasida va'da berish nutqiy harakati bajariladi, ammo ushbu harakat mazmunini aniq ifodalash uchun illokutiv fe'lni qo'llash imkoni ham bor: «*Kumushni ertaga kinoga olib borishga va'da beraman*». Xuddi shuningdek, «*Dars qilmaysanmi?*» sintaktik birligi so'roq, talab, ogohlantirish, taklif kabi nutqiy harakatlarni ifodalashi quyidagi yo'sinda aniqlashtirilishi mumkin: «*Dars qilmaysanmi, deb so'rayapman (sendan)*»; «*Dars qilmaysanmi? Buni sendan talab qilaman*» (o'qituvchining so'zi); «*Dars qilmaysanmi? Seni ogohlantiryapman*»; «*Dars qilmaysanmi? (kel, birgalikda qilishga taklif qilyapman)*».

Illokutiv fe'llarning ma'no tarkibida talaffuz etilayotgan nutqiy birlikning (gap yoki matnning) pragmatik-kommunikativ mazmunini ifodalovchi sema asosiy o'rinni egallaydi.

Asosiy muloqot birligi bo'lgan matnning umumiy tuzilishi, mazmuniy mundarijasi lisoniy birliklar kommunikativ ma'nosini shakllantiruvchi tajriba maydonidir. Yaxlit kommunikativ lisoniy tuzilma bo'lgan matnning semantik mundarijasi denotativ va signifikativ qismlardan tarkib topadi. Bulardan birinchisi matn mazmunining voqelikda kechayotgan hodisalar bilan bog'liq tomonlariga ishora qilsa, ikkinchisi esa, matn yoki nutq ijodkorining nutqiy tafakkur faoliyati bilan bog'liqdir.

Nutqiy muloqotning tashqi omillari sifatida ajratilgan va muloqotning shakli, mazmuni, usul hamda vositalarini belgilashda relevant bo'lgan. Nutqiy muloqotning maqsadi, holati, vaziyati, kommunikantlarning jinsi, yoshi, saviyasi, tabiati, milliy mansubligi kabi tarkibiy qismlarning har biri o'z paradigmasiga, har bir paradigma bir necha elementdan va har bir element

umumiy paradigmatic ma'no bilan birga o'ziga xos xususiy ifoda qiymatiga ham ega ekanligi ko'rsatilgan. Muayyan sharoitda bu paradigmalardan qay biri voqelanishi juda ko'p omillar bilan belgilanadi. Nutqiy muloqotning tarkibiy qismi bo'lgan nutqiy vaziyat muloqot shakli hamda vositalarini tanlash va belgilashda alohida mohiyat kasb etadi. Van Deyk kommunikativ vaziyat uchun zamon va makon muhim ekanligini ta'kidlab shunday deydi: «Gayjum ko'chada men notanish kishi bilan salomlashmagan bo'lar edim, lekin kimsasiz tog'da yoki orolda yolg'izoyoq so'qmoqda notanish kimsani uchratib qolsam, salom-alik qilishim turgan gap». Yoki A.Qodiriyning «O'tgan kunlar» asaridagi qaynota-kekinning ilk bor ko'rishishlari tasviriga diqqatni qaratsak: «Kumush uyalib zo'rg'agina salom berdi va Yusufbek hojining yaqiniga kelib *bo'yin egdi*. Hoji *qo'li bilan Kumushning yelkasiga qoqib suydi* va Kumushning *manglayiga tegizib olgan o'z qo'lini o'pdi*». Bu holat Nutqiy muloqotning tashqi tarkibiy qismlari: milliy (etnik) va madaniy (etik) xususiyatlar bilan bog'liqligidan dalolatdir. Nutqiy muloqotning ichki omillari sifatida tasniflanadigan tarkibiy qismlar lisoniy verbal va lisoniy noverbal deb nomlanuvchi ikki guruhga ajratiladi. Nutqiy muloqotning lisoniy verbal vositalari o'z navbatida gap, so'z birikmasi va so'z kabi birliklar sifatida nutqda voqelanadi hamda bu vositalar bir necha paradigmalarni o'z ichiga oladi. Masalan: «Salomlashish» lisoniy verbal vositalar paradigmasi, jumladan, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Assalomu alaykum va rahmatullohu va barakotuhu!

Assalomu alaykum!

Assalom!

Salom!

Hello!

Privet!

Salyut!

.....

Nutqiy muloqotning salomga javob (alek olish), so'rashish, so'rashishga javob bosqichlari ham o'ziga xos paradigmalariga ega. Lisoniy verbal vositalar kabi lisoniy noverbal omillar ham bir necha ichki paradigmalariga ega. Noverbal vositalarning milliy o'ziga xosliklari, nutqiy jarayondagi o'rni, ahamiyati, ishlatilishi, ularning verbal ifodalari olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Noverbal vositalarning kommunikantlar jinsi, yoshi, ijtimoiy vazifasi bilan bog'liq jihatlari haqida S.Mo'minovning ishlarida fikr bildirilgan bo'lsa-da, Nutqiy muloqotning tarkibiy qismlari maxsus tadqiq etilmagan.

«Paralingvistika» deb bir hisobda lingvistikadan chetga chiqariladigan bunday hodisalarni «lisoniy birliklarning noverbal (so'zsiz), asegmentor (yaxlit), bo'linmas, qolaversa, nofonetik ifodalanishi» deb tahlil qilish, bulardan foydalanishni nutqning bir shakli deb qabul qilish lison/nutq dixotomiyasi talablariga to'la mos keladi. Zeroki, bu vositalar verbal (so'zlar) vositalar bilan ifodlanishi mumkin bo'lgan informativ qiymatga egadir. Shunday ekan, bunday vositalarni lisoniy noverbal (yoki lisoniy bo'linmas) vositalar sifatida baholash lozim.

Nutqiy muloqotning asosiy tarkibiy qismlaridan har birini alohida-alohida olib tahlil qilish natijasida xulosa qila olamizki, nutqiy muloqot omillari ichki va tashqi omillar kabi ikki katta guruhga bo'linadi. Bu omillardan har biri bir necha ichki tur va ko'rinishlarga ega. Lekin har bir tur va ko'rinish elementlari o'zaro uzviy assotsiativ (xotiraviy, biri ikkinchisini eslatib

turuvchi, paradigmatic) aloqalar bilan bog'langan bo'lib, nisbatan mustaqil tizimchani tashkil etadi.

Istagan turdagi sistema **markaz** va **qurshov** munosabatlari asosida tuziladi va sistema markaziy elementlari qurshov elementlarini o'ziga bo'ysindirib turadi. Nutqiy muloqotning lisoniy va nolisoniy, ichki va tashqi omillari (tarkibiy qismlari, elementlari) pragmatik sistemaga birlashganda bu pragmatik sistema markazini, shubhasiz, lisoniy verbal vositalar tashkil qiladi.

Masalan:

- Mavlono, bir kimsa huzuringizga kirmoqchi.

-Kim?

-Kiyimi uvada, o'zi bahaybat bir yigit. "Jiyanlari bo'laman"- dedi, ammo men sizdan beruxsat kirgizmadim.

-Jiyanim? Shoshmang-chi! –deb mavlono o'rnidan turdi. Yalang oyog'iga charm kovush kiyib, yarim ochiq darvozaning oldiga bordi.

Olcha to'ni ham, oyog'idagi chang bosgan chorig'i ham yirtilib ketgan novcha bir yigit ko'zlari yaltirab, kulimsirab unga qarab yurdi. Qadam olishishi, qarashi juda tanish. Yigit:

-Mulla tog'a! **Assalomu alaykum!**, - deb quchoq ochganda, mavlono uning ovozi tanidi-yu:

-Tohir! Tohirjon- deb, u bilan quchoqlashib ketdi.

ta'sir ko'rsatadi Bu misoldan ko'rinib turibdiki, muloqot jarayonining yadroviy, markaziy unsuri lisoniy omil bo'lib, u shu tizimning boshqa elementlarida mujassamlangan axborot va ta'sirchanlik imkoniyatlarni o'zida yashirgan, implitsit shaklda o'zida mujassamlashtirgan. Muloqot lisoniy birligini tanlash esa, o'sha kommunikant, aniqrog'i adresant (so'zlovchi)ning shaxsiyati, ruhiyati, saviyasi, yoshi, jinsi va h.k.lar bilan bog'liq. Nutqiy muloqot pragmatik sistemasi markazini lisoniy verbal vositalar tashkil qilsa, noverbal lisoniy, shuningdek etik, estetik, etnik va boshqa tarkibiy qismlar uning qurshovini tuzib, lisoniy verbal hodisa informativ qiymatini mustahkamlab, sharhlab, to'ldirib, takomillashtirib, qisman takrorlab keladi.

Pragmatik nutqiy muloqot tizimi tarkibiy qismlarining informativ qiymatida simmetriya – o'zaro muvofiqlashuv, uyg'unlashuv kuzatiladi. Ammo nutqiy muloqot tarkibiy qismlar simmetriyasi bilan birga ba'zan ularning asimmetriyasi, ya'ni nutqiy muloqot tarkibidagi ayrim qismlar uning boshqa tarkibiy qismlarga ijtimoiy-informativ qiymat jihatidan uyg'un, mos bo'lmasligi ham mumkin (Chunonchi, tashqi ko'rinishidan bashang yevropalikning fasih o'zbek adabiy tilida so'zlashishi yoki aksincha). Asimmetriya muloqotning qurshov/hamroh tarkibiy qismlarida bo'lsa, odatda u muloqot jarayonida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Asimmetriya markaz/etakchi komponent tarkibida bo'lsa, salbiy. Ikki holatni qiyoslab ko'raylik: Batamom zamonaviy yevropacha kiyinishli va ko'rinishli qiz tinglovchilarga o'zbek rasm-rusumlariga mos ravishda (o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, hayo bilan boshini egib, kichik ta'zim bilan) tinglovchilarga "*Assalomu aleykum*" deb salomlashganda, barcha tinglovchilarning chehrasi yorishib ketdi. Bu manzara tahlil qilinganda, tinglovchilar "*Suratiga emas, siyratiga boq*" deb baholadilar.

Aksincha, tugal milliy o'zbekona "suratli" qiz kniksen bilan, tinglovchilarga baqrayib "*Privet!*" deganda ularda salbiy munosabat yaqqol ko'zga tashlandi.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy jarayonga insoniy faoliyatning bir turi va odamlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishining bir usuli sifatida yondashish zarur. Lingvistik nutqiy birliklarning xilma-xil moddiy shakllari ma'lum bir lisoniy birlikning oddiy bir varianti bo'lmay, ularning har biri o'ziga xos informativ qiymat va ahamiyatga ega. Ularning nutqiy faoliyat jarayonida xilma-xil maqsadlarda va turli yondoshlar bilan qo'llanilishi kuzatiladi. O'zbek tilida salomlashish/ko'rishish assotsiativ lisoniy paradigmasining har bir verbal birligi ijtimoiy-informativ qiymat va ahamiyatga ega. Shu bilan birga bu birliklar kommunikantlarning shaxsiy, ijtimoiy, etik, madaniy saviyalari bilan ham uzviy bog'liq bo'lib, tinglovchiga ular haqida axborot beradi. O'zbekona nutqiy muloqotning muqaddimasini alohida bir tizim sifatida tadqiqi shuni ko'rsatdiki, muloqot jarayonida lisoniy verbal, lisoniy noverbal hamda nolisoniy - irsiy (jinsiy), fiziologik (yosh), etik, etnografik, madaniy, ma'naviy, kasbiy... kabi o'nlab tomonlarning alohida-alohida elementlari bir situativ pragmatik tizimga birlashadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. –T., 1980.
2. Grays G.P. Logika i rechevoye obsheniye. V kn.: Novoye v zarubejnoj lingvistike. - Выр.16, Lingvisticheskaya pragmatika. - M.: Progress, 1985.-S 217-237.
3. Vendler Z. Illokutivnoye samoubiystva. V kn.: Novoye v zarubejnoj lingvistike. Выр. 16. Lingvisticheskaya pragmatika. – M: Progress, 1985.
4. Iskandarova Sh.M. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari. NDA, Samarqand, 1993. -27 b.
5. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: “Istiqlol”, 1994. -173 b.
6. Qodirov Pirimqul. Til va El. T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot, 2005.-248 b.
7. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev YO. Nutq madaniyati v uslubiy asoslari. –Toshkent: O'qituvchi. 1992. -110 b.
8. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy – lisoniy xususiyatlari. DDA.-T., 2000.-44 b.
9. Mo'minov S., Rasulov Q. Kommunikantlarning ijtimoiy roli va nutqiy muloqot haqida // Uslubshunoslik va frazeologiyaning dolzarb muammolari. –Samarqand: SamDU, 2007. -70-72 b.
10. Negmatov H., Vohidova N., Toirova G. Struktural tilshunoslikdan pragmalingsvistikaga // Xorijiy filologiya, 2007, 4-son. -38-41b.